

assessment taxonomy G. T. L. Brown, T. M. O'Leary, and J. A. C. Hattie (2019). The asTTle case example of effective reporting for formative assessment. Score reporting research and applications, edited by D. Zapata-Rivera (pp. 107-125). Routledge, New York, USA.

Chen, H., and J. Chen (2016). Using the extended DINA model framework to retrofit non-cognitive-diagnostic reading assessment. 218-230 in Language Assessment Quarterly, 13(3).

Chen, J., and J. de La Torre (2014). A method for diagnostically modeling existing large-scale assessment data: The case of the international student assessment program in reading. 1967-1978, Psychology, 5(18).

T. Fan, J. Song, and Z. Guan. A theoretical framework and instructional strategies for incorporating diagnostic evaluation into curricula. Asia Lang Test 11, 2 (2021). <https://doi.org/10.1186/s40468-020-00117-y>

KALIFORNIYA QALQONDORINING BIOEKOLOGIYASI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI.

Ergashova Husnida Ibrohimovna

assistant

Raxmonqulova Sadoqat Abdug'iyos qizi

talaba

Andijon qishloq xo'jaligi va agritexnologiyalar instituti

Annotatsiya: Kaliforniya qalqondori shox-butoq, barg va mevalarda oziqlanib, qizil dog'lar hosil qiladi. Urg'ochisining qalqoni 1,5-2mm. Tanasi yumaloq, limon rangida, oyog'i, ko'zi, va qanoti yo'q. Sanchib-so'ruvchi og'iz apparati uzun qilsimon. Erkag'i qanotli, ko'zli, burti bor, og'iz apparati taraqqiy etmagan. Maqolada Kaliforniya qalqondori bioekologiyasi, zarari va rivojlanish dinamikasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qalqon, olma kurtaklari, lichinka, daydichalar, erkak va urg'ochi zotlar, avlod harorat.

Kaliforniya qalqondori— *Diaspidiotus perniciosus* Comst. Avvallar tashqi karantin ob'ekti xisoblanardi. Xozirda O'zbekistonga kirib kelgan, bu ob'ekt juda xavfli bo'lib, 150 dan ortik daraxt va manzarali ekinlarda uchraydi.

Kaliforniya qalqondori mevali daraxtlarning eng xavfli so'ruvchi zararkurandasi xisoblanadi.

Kaliforniya qalqondorining birinchi yosh lichinkalari davrida daraxt po'stloqlari ostida joylashgan koloniyalar shaklida qalkon ostida qishlab chikadi. Bular odatdagi 1-yosh lichinkalardan fark qilib, yirikroq qalkon bilan (2-2,5 marta katta) qoplangan qishlovchi lichinkalar zich, qora qalqonga ega, tanalari sariq tusli. Sovuq tushishi bilan qolganlari (etuk zot va 2-yosh lichinkalari) o'lib ketadi. Fevralning oxirlarida uyqudagi lichinka ikkinchi yoshga o'ta boshlaydi. Lekin qish paytida 20-50% lichinkalar o'lib ketadi. Ular bahorda olma daraxtlarining tanasida shira yura boshlaganda mart-aprel oylarida (harorat 10 Sga yetganda) uyg'onadi. Daraxtlar ko'kara boshlashi bilan lichinkalar oziklanishni boshlaydi, ular 10-11 kun yashab oziqlangandan so'ng, olma kurtaklari bo'rtgan paytda, po'st tashlaydi va ikkinchi yosh lichinkalariga aylanadi, birinchi yoshdagi erkak va urg'ochi lichinkalar o'xshash va ularni ajratib bo'lmaydi. Ikkinchi yoshdan boshlab, erkak lichinkalarning qalqonlari cho'zinchoq (kalta silindrsimon) shakl oladi va urg'ochilaridan oson farqlanadi. Ikkinchi yosh lichinkalari 10-12 kundan so'ng yana po'st tashlaydi, ulardan bir qismi urg'ochilarga qolganlari esa

pronimfa va nimfa fazalaridan o'tgach erkak imogalarga jinsiy yetuk urgochi va erkak zotlarga aylanadi.

Erkak va urgochi zotlarning nisbati o'rtacha birga-bir to'g'ri keladi.

O'zbekiston sharoitida aprel oyida yosh urg'ochilar otalanadi va 25-30 kundan so'ng may oyining o'rtalarida "daydichlarni" ("brodyajkalarni") tug'adi. Boshqacha qilib aytganda, lichinkalar ona tanasida tug'ilishdan oldin tuxumdan ochib chiqqan bo'ladi. Daydichalar barglar, shoxlar va daraxtlardan boshqalarga o'rmalab, hamda shamol bilan 500 metrgacha uchib daraxtlarning boshqa qismlariga va boshqa bog'lar va dalalarga tarqaladi, o'simliklarni so'rib oziqlanadi va o'zidan yupqa qatlam shaklidagi oqimtir mumsimon shira chiqarib, undan qalqon hosil qiladi. hasharotning yashash davri 30-32 kuni tashkil etadi. ikkinchi avlod daydichlari iyul, uchinchi avlod daydichlari sentyabrda ba'zan, havo issiq kelganda, to'rtinchi avlod lichinkalari dekabrda tug'iladi. Demak, kaliforniya qalqondori Markaziy Osiyoda 3-4 avlod beradi. Qish sovuqlari boshlanishi bilan qalqondorning diapauzaga kirgan birinchi yosh lichinkalaridan tashqari barcha fazalardagilari halok bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida kaliforniya kalkondori mavsumda 4-5 ta bo'g'in berishi mumkin, Har kaysi bo'g'in lichinkalaridan bir qismi qishlashga qoladi. Va nixoyat, oxirgi avlodining 1-yosh lichinkalari maxsus tayyorgarlik ko'rib, ona qalqoni ostida qishlab qoladi. Ammo, sharoit mavjud bo'lsa (issiqxona va boshka xonadonlardagi o'simliklar) kaliforniya qalqondori yil mobaynida tinmay rivojlanishi mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Балыкина Е.Б., Ягодинская Л.П. Защита яблонных садов //Ж. Защита и карантин растений. – Москва. – 2014. – № 11. – С. 29-31.
2. Мухаммадиева М., Сулаймонов Б., Ортиқов У. ва б. Мевали дарахтларни зараркунандалардан ҳимоя қилиш тадбирлари. //Агро Илм журнали. – Тошкент. 2015. – № 2-3. – Б. 65-66.
3. Набиев У.Я. Томорқа ва дала ҳовлидаги боғ ва тоқзорларни зараркунанда ҳамда касалликлардан ҳимоя қилиш. – Тошкент, 1991. –Б. 16-112.
4. [НОКНИНГ ЗАРАРКУНАНДАСИ НОК ШИРИНЧАСИ \(Psylla pyri L\) БИОЭКОЛОГИЯСИ ВА УЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ УСУЛЛАРИ](#)
ХХ Шукуров, МК Рахмонова, ХИ Эргашова Science and innovation 2 (Special Issue 6), 731-733
5. [USE OF BIOLOGICALLY ACTIVE SUBSTANCES IN PEST CONTROL: <https://doi.org/10.47100/conferences.V1i1.1353>](#)
Ж Хайдаров, М Мамадалиев, Х Эргашова, У Орифжонова RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES